

Koronavirus sharoitida muhojirlar uchun «qaynoq tarmoq» sahifasi – Sankt-Peterburgda: <http://migrantinfo.kmormp.gov.spb.ru/koronavirus/>

## FOYDALI MASLAHATLAR

**Tibbiy yordam olishga oid muammo chiqqan holatda murojaat etish mumkin:**

**Министерства здравоохранения:** 8 (800) 200-03-89 qaynoq tarmog'iga

**Комитет по здравоохранению Санкт-Петербурга:**  
8 (812) 63-555-64, 8 (812) 571-09-06, zdrav.spb.ru

**Комитет по здравоохранению Ленинградской области:** 8 (812) 679-60-04, health.lenobl.ru

**Департамент здравоохранения Москвы:**  
8 (499) 251-83-00, 8 (495) 777-77-77, mosgorzdrav.ru

**Министерство здравоохранения Московской области:** 8 (498) 602-03-01, mz.mosreg.ru

**Территориальный орган Росздравнадзора по г. Санкт-Петербургу и Ленинградской области:**  
8 (812) 314-67-89, 78reg.roszdravnadzor.gov.ru

**по г. Москве и Московской области (tibbiy yordam olishdagi murakkabliklarda):** 8 (495) 611-47-74; 8 (916) 256-76-76, 77reg.roszdravnadzor.gov.ru

**Tez yordama olib ketilgan kishilar haqida ma'lumot olish uchun**

Sankt-Peterburg va Leningrad viloyati bo'yicha baxtsiz hodisalarni qayd qilish byurosiga murojaat qiling:  
8 (812) 573-66-66, 8 (812) 573-66-63,

Moskva va Moskva viloyati bo'yicha: 8 (495) 688-22-52.

Tez yordamning Moskva xizmati ma'lumotlar berish xizmati:  
8 (495) 620-41-40.

**Chet ellik fuqarolar uchun tez yordamga oid axborot va Sankt-Peterburgdagi tibbiy muassasalar bilan aloqa qilish:**  
<http://migrantinfo.kmormp.gov.spb.ru/budte-zdorovy/>

**mehnat muhojirlari uchun qaynoq tarmoq Комитета по межнациональным отношениям и реализации миграционной политики в Санкт-Петербурге:**  
8(812)576-28-67

## Ijtimoiy tashkilotlar

**БФ «ПСП-фонд» (Sankt-Peterburg va Leningrad viloyati mehnat muhojirlarini bepul huquqiy qo'llab-quvvatlash):**  
8 (812) 337-57-85, 8 (953) 141-31-09 psp-f.org, vk.com/pspfond

**«Благотворительная Больница» volontyorlik – ko'ngilli yordamchilik loyihasi (Sankt-Peterburgda muhojirlar va ularning oilalariga bepul tibbiy xizmat ko'rsatish )**  
<https://vk.com/charityhospital>

**«Миграция и мигранты. Межрегиональный информационный портал» (moslashuv va o'z huquqlarini himoya qilishga oid maslahatlar):**  
migrussia.ru

---

Буклет разработан БФ «ПСП-фонд»  
Авторы-составители: Хлызова Д.В., Якимов А.Н.  
Редактор: Панич Б.Л.

Буклет «Медицинская помощь. Советы трудовым мигрантам» на узбекском языке.

Публикация подготовлена в рамках проекта «Межрегиональный ресурсный центр по адаптации и интеграции мигрантов и гармонизации межнациональных отношений», реализуемого при поддержке Фонда президентских грантов.

# TIBBIY YORDAM

## Mehnat muhojirlariga maslahatlar

2021

**Tez yordam olish uchun mobil telefonidan 103 yoki 112 raqamlariga qo'ngiroq qiling.**

**Sizning hayotingiz va salomatligingiz uchun xavf tug'ilgan holatda bepul tez yordam ko'rsatishlari zarur, hatto Sizda tibbiy polis va hujjatlar bo'lmasa-da!**

Chet ellik fuqarolarda tibbiy sug'urta polisi bo'lishi zarur, yo'qsa, Sizni jarimaga tortishlari va hatto Rossiyadan chiqarib yuborishlari mumkin!

Tibbiy polis ikki xilda bo'lishi mumkin:

- ДМС (ixtiyoriy tibbiy sug'urta);
- ОМС (majburiy tibbiy sug'urta, bepul rasmiylashtiriladi).

## ДМС

ДМС polisi sug'urta shirkatlari idoralarida yoki «Почты России» bo'lmlarida rasmiylastiriladi va u quyidagilar uchun huquq beradi:

- poliklinika, bemorxonada zudlik bilan yordam berish;
- tez va kechiktirilmas tibbiy yordam;
- ДМС shartnomasida ko'zda tutilgan boshqa xizmatlar.

ДМС polisining narxi unda yozilgan tibbiy xizmatlar va amal qilish muddatidan kelib chiqadi. Mehnat muhojirlari uchun eng arzon DMS polisi, odatda, faqat davlat poliklinika va bemorxonalarida ko'rsatilgan tez va kechiktirilmas tibbiy yordam narxini qoplay oladi.

Bolalar – xorijiy fuqarolar uchun ДМС polisi odatda kattalar uchun tibbiy sug'yrta qaraganda qimmatroq turadi. Ayniqsa, ДМС ning qimmat polislari emizikli va yangi tug'ilgan bolalar uchun nazarda tutilgan. Shuningdek ДМС polisini bolani bolalar bog'chasi yo maktabga qabul qilishayotganda so'rashlari mumkin. Bolalar uchun tez tibbiy yordam har qanday holatda ham bepul ko'rsatilishini unutmaslik muhimdir!

Agar ayol homiladorligi va ko'zi yorigan paytda rejali tibbiy yordam olishni istasa, ДМС polisini rasmiylashtirish paytida u bu borada albatta aytishi zarur, chunki buni sug'urtaning alohida dasturi talab qiladi.

ДМС polisini rasmiylashtirish uchun quyidagi hujjatlar zarur:

- passport va passportning notarial jihatdan tasdiqlangan nusxasi;
- muhojirlik kartasi va uning nusxasi;
- muhojirlik qaydiga (registrasuya) qo'yilganlik haqidagi bildiruv va uning nusxasi.

Agar Siz ДМС polisini ish beruvchingiz orqali rasmiylashtirsangiz, Sizga qo'shimcha ravishda tashkilot rahbaridan imzo huquqi bilan ishonchnoma zarur bo'ladi.

## ОМС

**OMC polusini rasmiylashtirishingiz mumkin, agar Siz:**

- EOIH mamlakatlari (Armaniston, Belorus, Qozog'iston, Qирг'изистон) fuqarolari bo'lsangiz va mehnat shartnomasuga ko'ra ishlasangiz.

**Yo ega bo'lsangiz:**

- vaqtincha yashash ljozatiga (РВП);
- yashash huquqiga (ВНЖ);
- vaqtincha boshpana berilganligiga oid guvohnomaga ;
- qochqin guvohnomasiga.

OMC polusini rasmiylashtirish uchun sug'urta tibbiy tashkilotini tanlash zarur– buni kelgan eridagi poliklinikada amalga oshirish mumkin.

OMC polisi olish uchun quyidagi hujjatlar zarur:

- passport yo shaxsni tasdiqlovchi boshqa hujjat;
- СНИЛС;
- mehnat shartnomasu;
- muhojirlik kartasi;
- kelgan eri va muddati ko'rsatilgan kelganligi (registrasiya) haqidagi bildiruv varaqasining uziladigan qismi.

Rossiyada ishlayotgan EOIH fuqarolariga OMC polisi **qog'oz ko'rinishida beriladi** va u **amal qilish muddatiga ega bo'ladi** – taqvim yili oxirigacha, lekin mehnat shartnomasu amal qiladigan muddatdan ko'p emas.

O'z mehnat shartnomasuga ega bo'lмаган EOIH fuqarolari oila a'zolari, OMC polisi olish huquqiga ega emaslar va o'zлari uchun ДМС polisi rasmiylashtirishlari zarur.

Sizga ДМС yoki ОМС polisini bergen sug'urta tashkiloti nomi va telefonini albatta saqlab qo'ying: agar Siz polisngizni yo'qotib qo'ysangiz, Siz sug'urta shirkatiga murojaat etib, uni tiklashingiz, yo tez tibbiy yordam zarur bo'lgan holatda u rasmiylashtirilganini tasdiqlatishingiz mumkin.

**Yo'qolib qolish ehtimoli nazarda tutilganda sug'urta polisi nusxasini tayyorlab qo'yish foydalidir.**

## COVID-19

COVID-19 koronavirus virusi shamollahsga o'xshash xavfli infeksiya qo'zg'aydi, lekin jiddiy oqibatlarga, va hatto shamollah tufayli o'llimga, nafas olish va ovqat hazm qilish tizimlarini shikastlashga olib borishi mumkin.

**Asosiy xavf guruhi**—65 yoshdan o'tgan kishilar, lekin bolalar, yoshlar va o'rta yoshdagilari kishilar ham qattiq azoblanishlari mumkin. Virus odamdan odamga o'tadi – yo'talganda va aksirganda, shuningdek, ko'rishish orqali.

**Asosiy belgilari:** yuqori harorat, quruq yo'tal, nafas qisishi, mushaklardagi og'riqlar, o'ta horg'inlik, bosh og'rig'i, ba'zan ko'krakdagi og'riq, ich ketishi, chanqash, qayd qilish. Belgilar kasallik yuqqandan so'ng 14 kun davomida paydo bo'lishi va ko'pincha oddiy shamollah va grippga o'xshashi mumkin.

**Koronavirusdan qanday saqlanish mumkin:**

- jamoat joylariga faqat tibbiy niqob va qo'lqoplarda borish;
- yuzga iflos qo'llar bilan tegmaslik;
- bemorlar bilan muloqot qilmaslik;
- qo'llarni yaxshilab yuvmoq (kamida 30 soniya);
- siz tekkan va boshqa kishilar tekkan yuzalar va narsalarni dezinfeksiya qilish vasovunlab yuvish;
- boshqa odamlarga qo'l tekkizmaslik, qo'l siqishib so'rashmaslik.

Kasallik oldini olish va davolashga oid tibbiy axborot va pandemiya paytida chet ellik fuqarolarning RFda bo'lislari maxsus huquqiy rejimi borasida mazkur saytda tanishish mumkin:

[stopkoronavirus.rf](http://stopkoronavirus.rf)